

Ko‘rikdan o‘tkazish uchun kemalarni taqdim etish suzish xavfsizligining garovidir

2016-yilning 5-may sanasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kemalarni qurishda, foydalanishda, yangidan jixozlashda va ta’mirlashda ularni majburiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 141-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur Nizom kemalarning belgilangan vazifalariga muvofiq suzish xavfsizligini ta’minlash, suvda inson hayoti va sog‘ligini muhofaza qilish, O‘zbekiston Respublikasining ichki suv yo‘llarida yuklarni ishonchli tashilishini ta’minlash, suv ob’ektlarini kemalardan ifloslanishining oldini olish, shuningdek kemalardan foydalanish davrida kema egalarining javobgarliklarini oshirishga qaratilgandir.

Ko‘rikdan o‘tkazishning asosiy maqsadi:

kemalarning texnik holati ustidan samarali nazoratni tashkil etish;

kema, uning jihozlari va uskunalarining texnik holati texnik hujjatlarga muvofiqligini baholash;

kemalarning suzish xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik tadbirlarni tashkil etish;

avariya hodisalarini aniqlash va oldini olish;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish va kemalar faoliyati samaradorligini oshirishda kema egalariga amaliy yordam ko‘rsatish.

Kemachilik registri tomonidan kema reestriga kiritilgan, yuridik va jismoniy shahslarga tegishli, asosiy dvigatelining quvvati 55 kVt va undan ortiq bo‘lgan o‘zyurar kemalar va sig‘imi 80 registr tonnadan kam bo‘lmagan o‘zyurmas kemalar ko‘rikdan o‘tkaziladi.

Kemalarni ko‘rikdan o‘tkazish ular joylashgan manzil bo‘yicha amalga oshiriladi.

Kemalarni qurish, foydalanish, yangidan jihozlash va ta’mirlash davrida ularni ko‘rikdan o‘tkazish dastlabki, navbatdagi, har yilgi va navbatdan tashqari ko‘rikdan o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Ko‘rikdan o‘tkazishda quyidagilar amalga oshiriladi:

texnik hujjatlarning hamda kemaga o‘rnatilgan materiallar va buyumlarning sertifikatlari mavjudligini tekshirish;

kemachilik registri nazoratidagi kema ob’ektlarini ko‘rikdan o‘tkazish, o‘lchash, amalda ishlashini tekshirish va sinash;

kemani qurish, foydalanish, yangidan jihozlash va ta’mirlash davrida kemachilik registri nazorati ostida amalga oshiriladigan texnologik jarayonlarni kelishish va nazorat qilish;

kemalarga o‘rnatilgan, kemachilik registri nazorati ostidagi, materiallar va buyumlarning tamg‘alari va belgilarini tekshirish;

Nizom barcha turdagи ko‘riklarni o‘tkazish, kemalardan foydalanish, ularni loyihalashtirish, qurish, ta’mirlash va yangidan jihozlash davrida texnik nazoratni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Mazkur qaror talablarining bajarilishi suzish xavfsizligini ta’minlashga, shuningdek kemalar va suzuvchi vositalarning xizmat qilish muddatini uzaytirishga yordam beradi. Buning uchun kema egalari quyidagilarga majburdir:

ishlab chiqarilgan yildan, turidan va belgilangan vazifasidan qat’iy nazar o‘zlariga tegishli kemalarni kemachilik registri hujjatlarida nazarda tutilgan muddatlarda dastlabki, navbatdagi, har yilgi va navbatdan tashqari ko‘riklardan o‘tkazishga, taqdim etish;

ishlab chiqarilgan zavodning texnik hujjatlariga muvofiq sinovlar, o‘lchovlar va nuqsonlarni aniqlashni amalga oshirish.

Ko‘rikdan o‘tkazilganidan so‘ng kemachilik registrining quyidagi kema hujjatlari beriladi, muddati uzaytiriladi yoki tasdiqlanadi:

Klassifikatsiya guvohnomasi;

Suzishga yaroqliligi to‘g‘risidagi guvohnoma;

Neftdan, oqova suvlardan va chiqindilardan ifloslanishning oldini olish to‘g‘risidagi guvohnoma.

Kema konstruktsiyasiga, registrning kema hujjatlarida yoki kemaning dastlabki ko‘rikdan o‘tkazish dalolatnomasida ko‘rsatilgan kema xarakteristikasini o‘zgartiruvchi o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda; kema konstruktsiyasi va/yoki jihozlariga shikast yetkazilganda va ular bartaraf etilmasdan kemaning suzish xavfsizligi ta’minlanmasa kema egasi kemaning suzish hududini tasdiqlash yoki

o‘zgartirish va uning suzishga yaroqli ekanligini tasdiqlash maqsadida ko‘rikdan o‘tkazishi va klassifikatsiya qilish uchun kemachilik registriga murojaat etishi lozim.